



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI NAVOIY VILOYATI HOKIMINING QARORI

2025-yil 18-aprel

99-5-0-Q/25

Navoiy viloyati hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 8-apreldagi “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining eksport salohiyatini oshirish hamda qayta ishlash zanjirini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-136-sonli qarori ijrosini ta‘minlash to‘g‘risida

Viloyatda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksport salohiyatini yanada oshirish, mavjud yer resurslaridan samarali foydalanish, qayta ishlash, saqlash, eksport qilish va kooperatsiya tizimini joriy etish jarayonlarini o‘zaro integratsiya qilish maqsadida,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 8-apreldagi “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining eksport salohiyatini oshirish hamda qayta ishlash zanjirini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-136-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori bilan shunday tartib o‘rnatilganligi, unga muvofiq umumiy yer maydoni 5 gektardan kam bo‘lmagan qishloq xo‘jaligi korxonalari tomonidan o‘zlariga qarashli qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarning dala chetlarida ichki xo‘jalik yer tuzish loyihasiga muvofiq jami yer maydonining bir foiziga, lekin 20 sotixdan ko‘p bo‘lmagan o‘lchamda yer uchastkasidan ruxsat etilgan foydalanishning asosiy turiga mos bo‘lgan muzlatkichli omborxonalar, saralash, quritish, qayta ishlash, qadoqlash, suv tejovchi texnologiyalar va suv saqlash obyektlarini qurishga ruxsat etilganligi, bunda:

obyektlarni qurishni nazarda tutuvchi ichki xo‘jalik yer tuzish loyihalari yerdan foydalanuvchilarning buyurtmasi hamda Agrosanoatni rivojlantirish agentligi xulosasi asosida “O‘zdaverloyiha” davlat ilmiy-loyihalash institutining hududiy bo‘limlari

tomonidan ishlab chiqiladi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari tomonidan tasdiqlanishi hamda qurilish sohasida ruxsat beruvchi hujjatlarni olish uchun murojaat qilish huquqini berishi;

obyektlardan foydalanmaslik yoki maqsadsiz foydalanish holatlari aniqlanganda yer solig‘i stavkasi belgilangan soliq stavkalarining uch baravari miqdorida qo‘llanilishi belgilanganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

3. Quyidagilar:

2025-2027-yillarda meva-sabzavot mahsulotlari yetishtirish hajmlarini oshirishning maqsadli ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq;

2025-2027-yillarda meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash hajmlarini oshirishning maqsadli ko‘rsatkichlari 2-ilovaga muvofiq;

2025-2027-yillarda meva-sabzavot va oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash hajmlarini oshirishning maqsadli ko‘rsatkichlari 3-ilovaga muvofiq;

2025-yilda xalqaro moliya institutlari mablag‘laridan imtiyozli kreditlar ajratish hisobiga hududlarda o‘rnatiladigan 13 ta kichik hajmli ko‘chma muzlatkichlarning prognoz taqsimoti 4-ilovaga muvofiq;

qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishni sanoatlashtirish, qayta ishlash va eksport hajmlarini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Viloyat hokimining o‘rinbosarlari (S. Hikmatov, E. G‘afforov), viloyat qishloq xo‘jaligi boshqarmasi (A. Rashidov), viloyat investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi (R. Azimov), viloyat o‘simliklar karantini va himoyasi boshqarmasi (T. Tursunov) tuman (shahar) hokimliklari bilan birgalikda:

mazkur qaror bilan tasdiqlangan prognoz ko‘rsatkichlarga erishish maqsadida ishlarni samarali tashkil qilish;

mazkur qarorning 3-bandi bilan tasdiqlangan maqsadli ko‘rsatkichlarga muvofiq viloyat hududlarida meva-sabzavot mahsulotlari qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratishda qayta ishlash va saqlash darajasini oshirishning 2025-2027-yillardagi istiqbolli ko‘rsatkichlarini ta‘minlash;

xorijda tashkil qilinadigan savdo yarmarkalarini yetarli mahsulotlar bilan ta‘minlash;

bir oy muddatda Respublika hududida ayrim turdagi mahsulotlar eksportining 2025-2026-yillardagi istiqbolli ko‘rsatkichlarida belgilangan ayrim turdagi eksportbop mahsulotlar bozorini diversifikatsiyalashning maqsadli ko‘rsatkichlari asosida tuman

(shahar)lar kesimida eksport qilishning aniq chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqib, viloyat hokimligiga tasdiqlash uchun kiritish choralarini ko'rsin.

5. Viloyat qishloq xo'jaligi boshqarmasi (A. Rashidov), viloyat o'simliklar karantini va himoyasi boshqarmasi (T. Tursunov), Markaziy bankning viloyat bosh boshqarmasi (X. Pardayev) tijorat banklari bilan birgalikda 2025-yilda ishga tushiriladigan meva-sabzavot va oziq-ovqat mahsulotlari uchun qadoqlar ishlab chiqarish loyihalarining manzilli ro'yxatiga muvofiq 2025-yilda meva-sabzavot mahsulotlariga mo'ljallangan qadoqlarni ishlab chiqarish loyihalarini ishga tushirishga mas'ul etib belgilansin.

6. Ushbu qaror ijrosini samarali tashkil qilishga viloyat hokimining o'rinbosarlari S. Hikmatov, E. G'afforov, viloyat qishloq xo'jaligi boshqarmasi boshlig'i A. Rashidov, viloyat investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari R. Azimov, viloyat o'simliklar karantini va himoyasi boshqarmasi boshlig'i T. Tursunov hamda tuman (shahar) hokimlari mas'ul va shaxsiy javobgar etib belgilansin.

7. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining o'rinbosari S. Hikmatov, E. G'afforov zimmasiga yuklansin.

Viloyat hokimi



N.Tursunov

Navoiy viloyati hokimining
2025-yil 18-apreldagi
99-5-0-Q/25-son qaroriga
1-ilova

2025-2027-yillarda meva-sabzavot mahsulotlarini yetishtirish hajmlarini oshirishning MAQSADLI KO'RSATKICHLARI

T/r	Hududlar nomi	Meva-sabzavot, poliz ekinlari, uzum va dukkakli mahsulotlar yetishtirish hajmi							
		2024-yil amalda		2025-yil prognoz		2026-yil prognoz		2027-yil prognoz	
		ming tn	O‘tgan yilga nisbatan o‘shish, %	ming tn	O‘tgan yilga nisbatan o‘shish, %	ming tn	O‘tgan yilga nisbatan o‘shish, %	ming tn	O‘tgan yilga nisbatan o‘shish, %
Jami:		781	104,9	801	102,6	826	103,2	853	103,2
1	Navoiy sh	3,7	101,7	3,7	100,7	3,8	101,5	3,8	101,6
2	Zarafshon sh	0,05	100,4	0,05	100,4	0,05	100,4	0,05	100,5
3	G‘ozg‘on sh	1,1	101,0	1,1	100,9	1,1	101,3	1,1	101,4
4	Karmana	109,1	105,0	112,0	102,6	115,7	103,3	119,6	103,4
5	Konimex	18,8	103,6	19,1	101,5	19,5	102,0	19,9	102,1

6	Qiziltepa	168,5	104,9	173,2	102,8	179,0	103,3	185,0	103,4
7	Navbahor	153,2	104,8	157,3	102,6	162,2	103,1	167,3	103,2
8	Nurota	64,5	104,4	65,5	101,6	67,1	102,3	68,7	102,4
9	Tomdi	0,0							
10	Uchquduq	0,0							
11	Xatirchi	261,6	105,1	268,9	102,8	278,1	103,4	287,5	103,4

Navoiy viloyati hokimining
2025-yil 18-apreldagi
99-5-0-Q/25-son qaroriga
2-ilova

**2025-2027-yillarda meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash hajmlarini oshirishning
MAQSADLI KO'RSATKICHLARI**

T/r	Hududlar nomi	Qayta ishlash korxonalarining quvvatini oshirish va yangidan tashkil etish							
		2024-yil amalda		2025-yil prognoz		2026-yil prognoz		2027-yil prognoz	
		ming tn	yetishtirilgan mahsulotga nisbatan, %	ming tn	yetishtirilgan mahsulotga nisbatan, %	ming tn	yetishtirilgan mahsulotga nisbatan, %	ming tn	yetishtirilgan mahsulotga nisbatan, %
Jami:		45,0	5,8	50	6,2	57	6,9	64,0	7,5
1	Navoiy sh	5,54	150,7	5,54	150	5,54	147,4	7,54	197,5
2	Zarafshon sh	0,3	652,2	0,30	650	0,30	647,0	0,30	643,8
3	G‘ozg‘on sh								
4	Karmana	6,21	5,7	6,21	5,5	6,2	5,4	9,21	7,7

5	Konimex								
6	Qiziltepa	1,0	0,6	1,0	0,6	3,0	1,7	3,00	1,6
7	Navbahor	4,41	2,9	4,41	2,8	5,4	3,3	5,41	3,2
8	Nurota	1,5	2,3	1,5	2,3	1,5	2,2	2,50	3,6
9	Tomdi								
10	Uchquduq								
11	Xatirchi	26,0	9,9	31,0	11,5	35	12,6	36,00	12,5

Navoiy viloyati hokimining
2025-yil 18-apreldagi
99-5-0-Q/25-son qaroriga
3-ilova

2025-2027-yillarda meva-sabzavot va oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash hajmlarini oshirishning MAQSADLI KO'RSATKICHLARI

T/r	Hududlar nomi	Muzlatkichli omborxonalarning quvvatini oshirish va yangidan tashkil etish							
		2024-yil amalda		2025-yil prognoz		2026-yil prognoz		2027-yil prognoz	
		ming tn	Ishlab chiqarilgan mahsulotga nisbatan, %	ming tn	Ishlab chiqarilgan mahsulotga nisbatan , %	ming tn	Ishlab chiqarilgan mahsulotga nisbatan , %	ming tn	Ishlab chiqarilgan mahsulotga nisbatan, %
Jami:		41	5,2	44	5,5	49	5,9	55	6,5
1	Navoiy sh	6,57	179	6,8	183	7,2	191	7,8	204
2	Zarafshon sh	1,76	3 826	1,8	3 811	2,0	4 227	2,3	4 850
3	G‘ozg‘on sh	0,00	0,00	0,0	0,0	0,2	17,8	0,4	35,1

4	Karmana	9,01	8,3	9,1	8,1	9,7	8,4	10,7	9,0
5	Konimex	0,22	1,2	0,2	1,2	0,4	2,2	0,7	3,6
6	Qiziltepa	8,36	5,0	8,9	5,1	9,8	5,5	10,8	5,8
7	Navbahor	3,43	2,2	3,6	2,3	4,4	2,7	5,2	3,1
8	Nurota	1,77	2,7	1,8	2,7	2,2	3,2	2,5	3,7
9	Tomdi	0,50		0,5		0,5		0,6	
10	Uchquduq	3,45		3,5		3,8		4,0	
11	Xatirchi	5,57	2,1	7,6	2,8	8,6	3,1	10,1	3,5

Navoiy viloyati hokimining
2025-yil 18-apreldagi
99-5-0-Q/25-son qaroriga
4-ilova

**2025-yilda xalqaro moliya institutlari mablag'laridan imtiyozli kreditlar
ajratish hisobiga hududlarda o'rnatiladigan 13 ta kichik hajmli ko'chma
muzlatkichlarning prognoz taqsimoti**

T/r	Hududlar nomlanishi	Kichik hajmli ko'chma muzlatkichlar soni, dona
Jami:		13
1.	Karmana	2
2.	Qiziltepa	3
3.	Navbahor	3
4.	Xatirchi	5

Navoiy viloyati hokimining
2025-yil 18-apreldagi
99-5-0-Q/25-son qaroriga
5-ilova

**Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishni sanoatlashtirish, qayta ishlash va eksport hajmlarini oshirish bo‘yicha
CHORA-TADBIRLAR DASTURI**

T/r	Chora-tadbirlar	Ijro muddati	Mas’ul ijrochilar
1.	Hududlarda mavjud va ishlatilmayotgan meva-sabzavot mahsulotlarini saralash, quritish, qayta ishlash va qadoqlashga mo‘ljallangan uskunalar hamda muzlatkichli omborxonalarni xatlovdan o‘tkazib, ularni samarali ishlatishni yo‘lga qo‘yish va modernizatsiya qilish bo‘yicha o‘rnatilgan tartibda Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritish.	Ikki oy muddatda	Viloyat qishloq xo‘jaligi boshqarmasi (A.Rashidov), Markaziy bank viloyat bosh boshqarmasi (X.Pardayev), viloyat investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi (R.Azimov), viloyat o‘simliklar karantini va himoyasi boshqarmasi (T.Tursunov), Savdo-sanoat palatasi viloyati boshqarmasi (D.Shakarov), tuman (shahar)lar hokimliklari
2.	“Termiz xalqaro savdo markazi” erkin savdo zonasida har bir hudud o‘zining savdo pavilonlarini tashkil etib, meva- sabzavot va oziq-ovqat mahsulotlari ko‘rgazma-savdosini yo‘lga qo‘yish.	Doimiy	Viloyat qishloq xo‘jaligi boshqarmasi (A.Rashidov), viloyat investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi (R.Azimov), tuman (shahar)lar hokimliklari
3.	Viloyatning ixtisoslashgan mahallalarida olxo‘ri, uzum, qovun va o‘rik mahsulotlarini quritishga mo‘ljallangan 4 ta namuna sifatida tajriba-sinov loyihalarini tashkil etish va amalga oshirish choralarini ko‘rish.	2025-yil 15-dekabr	Viloyat investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi (R.Azimov), viloyat o‘simliklar karantini va himoyasi boshqarmasi (T.Tursunov), viloyat qishloq xo‘jaligi boshqarmasi (A.Rashidov), Agrosanoatni rivojlantirish agentligining hududiy bo‘limi

			(Sh.Jumaqulov), tuman (shahar)lar hokimliklari
4.	Hududlarda organik mahsulotlar ekiladigan maydonlarni 2025-2030-yillarda 10 ming gektarga yetkazish choralarini ko'rish.	2025-2030 yillarda	Viloyat qshloq xo'jaligi boshqarmasi (A.Rashidov), viloyat o'simliklar karantini va himoyasi boshqarmasi (T.Tursunov), tumanlar hokimliklari
5.	Aholi tomorqalari va ijaraga olingan yer maydonlarida jami 1 ming gektarga organik mahsulot yetishtirishni yo'lga qo'yish.	2025-2026 yillarda	Viloyat kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi (L.Xayrullayev), tuman (shahar)lar hokimliklari

6.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-iyuldagi PQ-5185-son qarori ijrosi doirasida Karantin agentligi tizimida moddiy-texnik bazani mustahkamlash bo‘yicha chora- tadbirlarni davom ettirish. Bunda, O‘simliklar karantini va himoyasi tizimini rivojlantirish jamg‘armasi hamda xorijiy grant mablag‘lari hisobidan quyidagilarni xarid qilish va foydalanishga qabul qilish: viloyat hududiy boshqarmaning zararsizlantirish bo‘limlari uchun kimyoviy vositalar hamda zarur uskunalarni tashish maqsadida maxsus avtotransport vositasi; mehnat muhofazasi qoidalariga rioya etilishini tekshirish va o‘rganish maqsadida kimyoviy gaz qoldiqlarini aniqlash detektorlari; tarmoq va server qurilmalari, zamonaviy kompyuter, printer texnikalari hamda planshetlar, cho‘ntak mikroskoplari; interfaol va innovatsion panellar, monitorlar, videokonferensaloqa jihozlari, videokamera, videokuzatuv moslamalari; o‘simliklar karantini davlat inspektorlari uchun bodi- kameralar, zamonaviy skuterlar; laboratoriya asbob-uskunalar va jihozlari; monitoring uchun ko‘p marta ishlatiladigan zamonaviy feromon tutqichlar.	2025-2028 yillarda	Viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (G‘.Boboqulov), viloyat O‘simliklar karantini va himoyasi boshqarmasi (T.Tursunov), viloyat Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi (A.Rashidov), tuman (shahar)lar hokimliklari
----	---	-----------------------	--

